

**QO‘QON XONLIGINI ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN BOSIB  
OLINISHI**

**I.M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”  
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

*E-mail: [izzatillakhon@gmail.com](mailto:izzatillakhon@gmail.com)*

**Karimov Dilshod Qobiljon o‘g‘li**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”  
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*[dilshodbekk711@gmail.com](mailto:dilshodbekk711@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni, uning tarixiy sabablari, asosiy bosqichlari hamda oqibatlari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan bosqinchilik siyosati, xususan, Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy yurishlari va ularning strategik maqsadlari yoritib berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *Qo‘qon xonligi, Rossiya imperiyasi, Chernyayev, Turkiston viloyati, Po‘latxon qo‘zg‘aloni, Kaufman, Markaziy Osiyo, siyosiy beqarorlik. Xudoyorxon.*

**THE CONQUEST OF THE KOKAND KHANATE BY THE RUSSIAN EMPIRE**

**Abstract.** *This article analyzes the process of the conquest of the Kokand Khanate by the Russian Empire, its historical causes, main stages, and consequences from a scientific perspective. The study highlights the expansionist policy pursued by the Russian Empire in Central Asia in the second half of the 19th century, particularly its military campaigns against the Kokand Khanate and their strategic objectives.*

**Keywords:** *Kokand Khanate, Russian Empire, Chernyaev, Turkestan region, Po‘latkhan uprising, Kaufman, Central Asia, political instability, Khudoyar Khan.*

**ЗАВОЕВАНИЕ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ**

**Аннотация.** *В данной статье с научной точки зрения анализируется процесс завоевания Кокандского ханства Российской империей, его исторические причины, основные этапы и последствия. В исследовании освещается экспансионистская*

*политика Российской империи в Центральной Азии во второй половине XIX века, в частности военные походы против Кокандского ханства и их стратегические цели.*

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Российская империя, Черняев, Туркестанский край, восстание Пулатхана, Кауфман, Центральная Азия, политическая нестабильность, Худояр-хан.

**Kirish.** Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olish uchun harakat Pyotr I davridan boshlangan. Pyotr I ning afsonaviy Hindiston yerlariga ega bo‘lishi uchun olib boradigan yo‘l hozirgi Markaziy Osiyo orqali o‘tar edi. Shuning uchun qozoq juzlari va O‘rta Osiyo xonliklarini zabt etish imperator uchun bajarilishi kerak bo‘lgan asosiy vazifa hisoblangan. 1714-yilda turkman zodagonlarining vakili Xo‘ja Nafas Peterburgga borib, Amudaryoda oltinli qumlarning ko‘pligi to‘g‘risidagi ma’lumotni Pyotr I ga yetkazgach, Rossiyada O‘rta Osiyoga qiziqish yanada ortgan. Ma’lumotlarni aniqlashtirish maqsadida 1715-yilda kapitan I. Buxgolts rahbarligidagi birinchi ekspeditsiya jo‘natilgan. Ammo, mahalliy aholining katta to‘sqinligiga uchragan ekspeditsiya tez orada barbod bo‘lgan. Pyotr I ning Kaspiy dengizi sharqiy qirg‘oqlarida istehkomlar qurish to‘g‘risidagi buyrug‘idan so‘ng Avliyo Pyotr va Krasnovodsk istehkomlari barpo etilgan.

**Adabiyotlar sharhi.** Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi masalasi tarixshunoslikda keng o‘rganilgan mavzulardan biri bo‘lib, ushbu jarayon turli tadqiqotchilar tomonidan siyosiy, harbiy va ijtimoiy jihatdan tahlil qilingan. I. U. Kuzikulovning “Qo‘qon xonligi tarixi” o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida xonlikning ichki boshqaruv tizimi, siyosiy tuzilishi hamda uning zaiflashuv jarayonlari yoritilib, aynan ichki siyosiy beqarorlik Rossiya bosqiniga qulay sharoit yaratgan omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi.

H. Ziyoyevning “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” asarida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoga nisbatan olib borgan ekspansiya siyosati, xususan Qo‘qon xonligiga qarshi harbiy yurishlari va ularga qarshi mahalliy qarshilik harakatlari keng yoritilgan. Muallif bu jarayonlarni tarixiy manbalar asosida tahlil qilib, bosqin jarayonining bosqichma-bosqich amalga oshirilganini ta’kidlaydi.

H. Sodiqov, R. Shamsutdinov, P. Ravshanov va Q. Usmonovlarning “Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida” asarida Qo‘qon xonligining tugatilishi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati doirasida amalga oshirilgan strategik harakat sifatida baholanadi. Asarda harbiy yurishlar, siyosiy bosim va yangi ma’muriy tizimning joriy etilishi jarayonlari izchil tahlil qilingan.

Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asarida Qo‘qon xonligi o‘zbek davlatchiligi tarixining muhim bo‘g‘ini sifatida ko‘rib chiqilib, uning Rossiya bosqiniga qadar bo‘lgan

siyosiy taraqqiyoti va ichki inqiroz sabablari yoritiladi. Muallif xonlikning zaiflashuvi tashqi bosimni kuchaytirganini alohida ta’kidlaydi.

U. S. Abdullayevning “Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar” asarida XIX–XX asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-etnik jarayonlar tahlil qilinib, Rossiya mustamlakachilik siyosati natijasida hududning demografik va ijtimoiy tuzilmasida yuz bergan o‘zgarishlar yoritiladi.

X. Bobobekovning “Qo‘qon tarixi” asarida Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi, ichki boshqaruv tizimi va uning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonlari tarixiy manbalar asosida batafsil bayon etiladi. Asarda ayniqsa 1875–1876-yillardagi voqealar alohida tahlil qilinadi.

Q. Usmonovning “O‘zbekiston tarixi” darsligida Qo‘qon xonligining tugatilishi umumiy tarixiy jarayon sifatida yoritilib, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi mustamlakachilik siyosatining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Darslikda bu jarayonning siyosiy va ma’muriy oqibatlari ham ko‘rsatib berilgan.

Shuningdek, Ibratning “Farg‘ona tarixi” asarida Qo‘qon xonligining mahalliy tarixiy jarayonlari, xalq hayoti va bosqin davridagi voqealar bevosita kuzatuv asosida bayon qilinib, tarixiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Natijalar.** Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni shuni ko‘rsatadiki, mazkur voqea faqat tashqi harbiy bosqin natijasi bo‘lib qolmay, balki ichki siyosiy va ijtimoiy omillar bilan chambarchas bog‘liq murakkab tarixiy jarayon hisoblanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xonlikdagi markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, mahalliy amaldorlar o‘rtasidagi o‘zaro kurashlar hamda aholining norozilik kayfiyati Rossiya imperiyasi uchun qulay sharoit yaratgan. XIX asr boshlariga kelib Nikolay I davrida ruslarning Turkistonga aktiv harakatlari boshlangan. Shu asrning 30-yillarida Qo‘qon xonligi nazorati ostida bo‘lgan yerlarda Sarisu daryosi va Ulutovda xonlik tomonidan qurilgan harbiy qo‘rg‘onlar buzib tashlangan. 1839-1840-yillarda podsho Nikolay I ning homiyliги va fatvosi bilan Orenburg harbiy gubernatori V.A. Perovskiy katta qo‘shin bilan Xivani bosib olish niyatida yo‘lga chiqqan. Qo‘shin tarkibida 2 ta zambarak, 40 ta arava, 5325 nafar askar, 10 ming tuya bor edi. Ammo, ob-havo sharoiti va oziq-ovqat tanqisligi Perovskiy qo‘shinining Xivaga yurishini to‘xtatib, orqaga qaytishga majbur qilgan. Rossiya imperiyasining Turkiston yerlarini bosib olishga intilishining yangi to‘lqini 1847-yilda boshlangan. Shu yili Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyi - Raim qal’asi egallanib, Orol harbiy qal’asi barpo etilgan.

1852-yilda rus qo‘shinlari Oqmachitga hujum qilgan, lekin uni qo‘lga kiritish mag‘lubiyat bilan yakunlangan. 1853-yilda general Perovskiy boshchiligida ikki ming qo‘shin Oqmachitga ikkinchi marta hujum uyushtirgan. 22 kunlik qurshov va jangdan so‘ng

bosqinchilar istehkomni egallaganlar. So‘ng ruslar istehkomni “Perovskiy forti” nomi bilan atay boshlaganlar. Qo‘qonliklar bir necha marotaba Oqmachitni qaytarib olish uchun kurashganlar, lekin bu harakatlar samarasiz yakunlangan. 1854-yilda Olmaota o‘rnida Verniy harbiy qal’asining qurilishi Turkistonni egallashda hal qiluvchi o‘rin tutgan istehkomlaridan bo‘lgan. 1860-yilda polkovnik Simmerman qo‘shini Qo‘qon xonligining 5 ming kishilik qo‘shinini tor-mor keltirib, To‘qmoq va Pishpak qal’alarini egallagan. Ili orti vodiysi Alatov okrugi deb o‘zgartirilgan. 1861- 1863-yillarda chor qo‘shinlari Qo‘qon xonligiga bir necha marta zarbalar berdilar. Bu davrda Qo‘qon xonligiga qarashli Yangi Qo‘rg‘on, Din Qo‘rg‘on, Merka va ikkinchi marta Pishpak egallangan. 1863-yil yozida polkovnik Chernyayev Sirdaryo yoqasidagi Suzoq qal’asini qo‘lga kiritgan va uni “Rossiya mulki” deb e’lon qilgan. 1864-yil boshida Chernyayev 2500 kishilik qo‘shin bilan Avliyootani egallagan. Polkovnik Veryovkin guruhi 12 kunda Turkiston qal’asini bosib oldi. 1864-yil 21-sentabrda Chernyayev Chimkentni jang bilan egallagan. Chernyayev garchi podsho Aleksandr II taqiqlagan bo‘lishiga qaramay, 1864-yil 27-sentabrda Toshkentni zabt etishga kirishgan, lekin toshkentliklarning qattiq qarshiligiga dosh bera olmaganligi oqibatida Chimkentga qaytishga majbur bo‘lgan. 1865-yil 28-aprelda Chernyayev Chirchiq yonidagi Niyozbek qal’asini jang bilan ishg‘ol qilgan.<sup>52</sup> Bir xoin maslahati bilan Chernyayev Kaykovus arig‘i to‘g‘onini buzib, uni Chirchiq daryosiga burib yuborgan. Toshkentliklar og‘ir ahvolda qolgan. Chernyayev qo‘shini 9-may kuni hal qiluvchi hujumga o‘tib, 14-iyunda shaharga yorib kirgan. 17-iyunda himoyachilar shaharni topshirish uchun muzokaralarni boshlagan.

Toshkentni strategik jihatdan Qo‘qon xonligining yuragi deyish mumkin edi. Toshkentning egallanishi Qo‘qon xonligiga yo‘lning ochilishini anglatardi. 1865-yilda Toshkent egallangan. 1867-yilga kelib hududda Rossiya boshqaruv tizimi o‘rnatildi.

Mavzuni o‘rganish davomida odamni hayratga soladigan narsa bu aholining adolatsizlik va jabr-zulmga qarshi qo‘lida qurol bo‘lmasa ham qo‘zg‘alon ko‘tarib chiqishidir. Xudoyorxonning qattiq zulmi va adolatsizligi, og‘ir iqtisodiy hayot hamda uning Rossiyaning xizmatkoriga aylanishi xalq g‘azabini qo‘zg‘atdi. Shu sababli xonga qarshi xalq bilan birgalikda saroy harbiylari va amaldorlari, ruhoniylar va savdo vakillari ham bosh ko‘tardi. Bunda o‘zbeklar, qirg‘izlar va tojiklar faol qatnashib, vatan xoini Xudoyorxon va Rus davlatining tajovuziga qarshi kurashdilar. Bu harakatning yuzaga kelishida qirg‘iz Mulla Is’hoq mulla Hasan o‘g‘li ham muhim o‘rin egallab, Po‘latxon nomi bilan shuhrat qozongan edi. Mulla Is’hoq taxminan 1844-yili tug‘ilgan. Uning otasi Mulla Hasan o‘qimishli kishi bo‘lib, Marg‘ilondagi Oqmadrasada mudarrislik qilgan. Mulla Is’hoq dastavval Qo‘qondagi Tunqatorda, so‘ngra otasi huzurida ta’lim olgan. Bir necha yil o‘tgach, ya’ni 1867-yili

<sup>52</sup> Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000.

Farg‘onadagi So‘xga kelib, o‘z qabiladoshlarining yaylovida 2 yil yashagan, so‘ngra Uxndagi masjidida imomlik qilgan.

Ko‘p o‘tmay u Andijon shahriga borib, masjidlardan birida imomlik qilgan. Ayni bir paytda tamaki savdosi bilan shug‘ullanib, Toshkentga qatnab turgan. Bu yerda Mulla Is‘hoq xonlikning nufuzli kishilaridan biri quramalik Abdumo‘min otaliq bilan do‘stlashib, Toshkentga keladi. Xonlikning siyosiy kurashlarida faol qatnashgan va ko‘pni ko‘rgan Abdumo‘min ko‘p voqealarni gapirib berib, Mulla Is‘hoqning siyosiy ongini uyg‘otadi. Bu vaqtda, ya‘ni 1872-yili Sherdodxo‘h boshchiligidagi bir necha qirg‘izlar Samarqandga borishib, Qo‘qon xoni Olimxonning nevarasi Po‘latbekni taxtga o‘tqazish haqidagi maqsadlarini bayon etadilar. Bu ishni amalga oshirishda qirg‘iz qabilalari bevosita yordam berishlari ma‘lum qilinadi. Ammo taxt uchun kurashlarda buvisi Olimxon va otasi Ibrohimbek o‘ldirilganligini esdan chiqarmagan Po‘latbek taklifni qabul etmaydi. Shundan keyin Sherdodxo‘h Toshkentga kelib, Abdumo‘min otaliq xonadonida mehmon bo‘lib, Po‘latbekning rozi bo‘lmaganligini so‘zlaganda Mulla Is‘hoq uning nomi bilan taxt uchun kurashishni zimmasiga olgan. Shu ravishda Mulla Is‘hoq Po‘latbek, ya‘ni sobiq hukmdor Olimxonning nevarasi sifatida siyosiy kurashga kirishadi. U xalqning Xudoyorxon zulmi va Rus davlatiga qarshiligini yaxshi anglagan holda harakat qilib, Namangan uyezdining shimoliy qismidagi, ya‘ni Koson va Nanay oralig‘idagi Qutluq Said qabilasining yordami bilan atrofida 500 kishini to‘playdi.

Shu ravishda Po‘latbek boshchiligidagi qo‘zg‘olon boshlangan edi. Aytib o‘tish lozimki, bu vaqtgacha Ma‘mir Merganov boshchiligida Andijon uyezdida qirg‘izlar va Ma‘mun Shoumurzokov rahbarligida Chotqolda qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan edi. Ular xon askarlari tomonidan bostirilgan. Po‘latbek boshchiligidagi xalq harakati o‘sha qo‘zg‘olonlarning davomi edi.

Namangan shahriga Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi hukumat qo‘shini kelganida Po‘latbek to‘qnashuvdan qo‘rqib, chekinishni lozim topdi. Ammo Kosonda xon askarlari bilan to‘qnashuvda mag‘lubiyatga uchradi. Abdurahmon oftobachi uning ko‘p safdoshlari va qo‘zg‘olon ishtirokchilarini o‘ldirdi hamda asir oldi. Po‘latbek bir guruh kishilari bilan Chotqol tog‘lariga qochishga ulgurdi. U 1875-yilning boshlarida Chotqoldan chiqib, Qo‘qon atrofidagi Laylakka kelib, 200 kishini to‘pladi. O‘sha yili iyulning birinchi yarmida Po‘latbek O‘zganda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga boshchilik qilib, xonlikka katta xavf tug‘dirdi. Ularga qarshi xon Iso Avliyo, Abdurahmon oftobachi va Sarimsoq eshikog‘asi boshchiligida 4000 kishilik askar yuborgan. Biroq 1875-yil 28-iyulda bu yirik amaldorlar qo‘shin bilan qo‘zg‘olonchilar tomoniga o‘tib, birlashganlar.

Xudoyorxonning o‘g‘li Andijon hokimi Nasriddinbek 5 ming kishilik qo‘shin bilan ularga qo‘shilgan. Xonlikning asosiy harbiy qismlari va lashkarboshilarning qo‘zg‘olonchilar

tomoniga o‘tib ketishi Xudoyorxon taqdirini hal etgan omil bo‘ldi. O‘sha kezlari xon bilan suhbatlashgan G. Vayenbergning so‘zicha, Xudoyorxon qo‘zg‘olonchilar ruslarga qarshi kurashishni maqsad qilib qo‘yganligini aytgan. Qirg‘izlarning “g‘azot” bayrog‘i ostida bosh ko‘targanliklari ham shundan dalolat beradi. Bu xususda Kaufman ham 1875-yil 15-sentabrda harbiy vazirga yozgan xatida gapirib: “Butun Qo‘qon aholisi bizga qarshi ochiqdan-ochiq bosh ko‘tardi”, degan. Endilikda Xudoyorxonning Rossiya kuchlariga tayanishdan boshqa iloji qolmay, yordam so‘rab Kaufmanga murojaat etdi. “Shu kunlardagi og‘ir va baxtsiz paytlarda, – deyiladi unda, – mening Mulla Iso Avliyo, Abdurahmon parvonachi va Xolnazar parvonachi singari eng ishonchli kishilarim qo‘shin bilan dushmanlarim – qirg‘iz qo‘zg‘olonchilariga qo‘shildilar hamda menga qarshi urushmoqchilar. Men hamma vaqt siz, oliy hazratlaridan do‘stlik va yordam kutib turganim boisidan bu gal ham meni e‘tibordan chetda qoldirmangiz. Shaxsan o‘zimni va Qo‘qon xonligini ulug‘ imperator janoblarning ixtiyoriga topshiraman hamda qo‘shinini to‘plar bilan birgalikda imkon boricha tezroq Qo‘qon shahriga yuborishingizni so‘rayman”<sup>53</sup>.

Xudoyorxon uzil-kesil o‘zini ham, butun xonlikni ham butunlay bosqinchilar oyog‘i ostiga tashladi. U shu darajada ishonchini yo‘qotgan ediki, fursatni g‘animat bilib, qochishga qaror qiladi. “Oxir ul-amr sakson aroba kuch xazina va oyimlar, bekalar, yetti aroba tana” bilan 1875-yil 22- iyulda yo‘lga chiqadi. Uning yonida 4000 piyoda va 2000 otliq askar, 68 to‘p bo‘lgan. Biroq Qo‘qondan 10 chaqirim yurganlaridan keyin mazkur qo‘shin xonni tashlab ketgan. Xon 500 askar bilan yo‘lni davom ettirgan. Qo‘qondan harbiy qismlar Xudoyorxonni tutish uchun ketidan quvgan va to‘qnashuvlar oqibatida xon askarlaridan 8 kishi o‘ldirilgan, 9 kishi yarador qilingan. 1875-yilning 7-avgustida Xudoyorxon Xo‘jandga kelgach, Toshkentdagi rus harbiy ma‘muriyati ishonchini qozongan kishilar, xususan Saidazimboy vositachiligida general-gubernator bilan qanday muomalada bo‘lish haqida maslahat so‘rab, bir kishini uning huzuriga 6 ming tanga va xat bilan yuborgan. Ko‘rinib turibdiki, Xudoyorxonning taqdiri zolimligi, kaltabinligi va ona yurtga xoinlik qilganligi tufayli juda fojeali bo‘ldi.

1873-yili polkovnik Skobelev harbiy vakil sifatida bir necha soldat bilan Qo‘qonga yuborilgan edi. U bilan birga harbiy topograf Rednev va tashqi ishlar vazirligining vakili Veyner ham borgan. Ular Xudoyorxon bilan birga Xo‘jandga qaytishga majbur bo‘lgan edilar.

Ruslar foydasi tegmaydigan bo‘lganidan so‘ng Xudoyorxonni taqdirlash u yoqda tursin, xalq hisobiga to‘plagan xazinasini ham tortib oldi va o‘zini Orenburgga surgun qildi. Xonni bu yerga Mulla Ma‘ruf dodxoh, Qosim to‘qsoba, Jamil xazinachi, Muhammad sharbatdor,

<sup>53</sup> Kuzikulov I. U. Qo‘qon xonligi tarixi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan: Namangan, 2014. – B. 72.

Xursand va Mullacha (har ikkalasi qul), Mirzaboy sag‘ir va Toji mahram degan kishilar kuzatib borganlar.

Xudoyorxon Qo‘qondan chiqib ketishidan oldinoq yuqori tabaqa vakillari taxtga uning o‘g‘li Nasriddinni va boshqa nomzodlarni o‘tqazishga kirishgan edilar. Abdurahmon oftobachi boshchiligidagi guruhlar Nasriddinni taxtga o‘tqazishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu xon Turkiston general-gubernatorligi bilan ham yaxshi aloqalar o‘rnatish maqsadida Kaufmanga xat yuborgan. Bunda u o‘zining taxtga o‘tirganligini ma‘lum qilish bilan barobar, do‘stona aloqada bo‘lish haqida so‘z yuritgan. Aslida esa u Rus davlatining tajovuziga qarshi kuchlarni to‘plashga urindi. Xususan, u Buxoro amiriga quyidagi mazmunda xat yuborgan: “Otam o‘rniga taxtga o‘tirgan men sizga ma‘lum qilamanki, hozirda din himoyasi uchun kurashga otlangan shahar va dasht aholisi katta kuch-g‘ayrat bilan bosh ko‘tardi. Ona-Vatanga muhabbat va sodiqlik hamda din uchun kurash shuncha ko‘p odamlarni bir joyga jamladiki, son-sanog‘i Xudodan boshqa hech kimga ma‘lum emas. Meni Andijondan keltirishib, kofirlarga qarshi kurashishni zimmasiga yukladilar. Biz taxtga ega bo‘ldik, shahar va dasht aholisi bizni xonlik libosi bilan ziynatladi. Hozirda kofirlar o‘tadigan har bir yo‘lga harbiy qismlar yubordik. Shaxsan men ham kofirlarga qarshi kurashish maqsadida behisob qo‘shin bilan yo‘lga chiqdim.

Oliy hazrat! Sizni otam o‘rnida va islomning yirik hukmdorlaridan biri sifatida ko‘rib, o‘zimizning ishlarimiz va ezgu maqsadlarimizni izhor etmoqdamiz...”<sup>54</sup>

Mazkur xatdan ko‘rinadiki, Nasriddinxon Buxoro xonligini ochiqdan-ochiq bo‘lmasa-da, uning harakatlariga xayrixohlik bilan qarashga chaqirgan. Abdurahmon oftobachi va Iso avliyo ham Buxoro amiriga o‘sha mazmundagi xatlarni yuborgan. Nasriddinxon va uning atrofidagi Abdurahmon oftobachi boshliq hokimiyat vakillarining yuritgan siyosatini belgilashda Toshkent aholisi va nufuzli kishilarga, jumladan Saidazimboyga yuborilgan murojaat ham diqqatni jalb etadi: “Mana 12 yil o‘tdiki, la‘nati ruslar Xo‘jand, Toshkent, O‘ratepa va Samarqandni bosib olishib, din shu‘lasini o‘chirdilar va islomga ziyon keltirdilar. Shu sababli barcha musulmon ahli urushni muqaddas burch deb hisoblaydi. Xudoyorxon esa ruslar bilan do‘stona munosabatda bo‘lib va ko‘p sovg‘alar yuborib, xatoga yo‘l qo‘ygan edi. U bizning dinni qattiq ushlab haqidagi nasihatimizga kirmay, oq podshohga berildi, islom dinidan qaytdi va qalbaki oq podshohga yopishib oldi hamda bizni oramizdan chiqdi. U bularning hammasini shaxsiy manfaatlarini o‘ylab qilgan edi. Shundan keyin barcha ruhoniylar va xizmatchilar vakillari, hamma katta-kichik odamlar bir yoqadan bosh chiqarib, kelishmovchiliklarni bartaraf etgan holda, xonning katta o‘g‘li Said Muhammad Nasriddinni taxtga o‘tqazdilar. Bizning davlatimizdan 3 lak, ya‘ni 300 000 kishi chiqadi va bu bilan biz

<sup>54</sup> Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari). – T: Sharq, 1998. – B. 339.

katta kuchga egamiz. Biz, katta-kichik hammamiz hamda har bir kishi alohida kurashishni muqaddas burch deb bilib, bir kishi qolguncha jang qilamiz va Xudoning marhamati ila g‘alabaga ishonamiz.

Agar hozir sizlar bu xatni olganingizdan keyin musulmon dinini himoyasi uchun muqaddas urushni xohlasangizlar, u vaqtda bir joyga to‘planib, urushga tayyor turinglar”.

Abdurahmon oftobachi va Mulla Iso Avliyo imzosi bilan bitilgan xat shuni ko‘rsatadiki, xonlikdagi xalq harakati Rus davlati va uning tarafdori Xudoyorxonga qarshi qaratilgan ozodlik kurashi hisoblangan. Ammo shunisi taajjublanarliki, o‘sha xatlarning mualliflari amir va Saidazimboyning Rossiyaning sodiq tarafdorlari ekanini bila turib, ularni yordam berishga da‘vat etganlar. Amir va Saidazimboy esa xatlarni Turkiston general-gubernatoriga topshirib, Rossiyaga sodiqliklarini yana bir bor namoyish qilganlar.

Shu tarzda, xonlikdagi vatan himoyachilari sardorlarining chetdan yordam olishga qaratilgan umidlari puchga chiqqan edi.

1873-yil 31-iyulda Kaufman Nasriddinxon xatiga yozgan javobida Xudoyorxon bilan tuzilgan 1868-yilgi shartnomani va do‘stlik aloqalarini buzmaslik sharti bilan uning xonlik maqomini tan olishini bildirgan. U Nasriddinxonning Rus davlatiga qarshi qaratilgan harakatlarini yaxshi bilsa-da, lekin vaqtinchalik xon bilan murosaga borishni lozim topgan.

Bosqinchilar Farg‘ona vodiysining eng yirik va rivojlangan shaharlaridan biri hisoblangan Andijonni uzoq vaqtgacha qaddini ko‘tara olmaydigan darajada ostin-ustun qilib tashladilar. 1-2 oktyabr kunlari Andijonga to‘plardan jami 226 snaryad otilgan edi. 1875-yil 3-oktyabrda general Trotskiy Andijondan Namanganga ketish yo‘lida vatan himoyachilari bilan to‘qnashgan. Bunday to‘qnashuvlarda qatnashgan, deb ko‘p qishloqlar yondirilgan. Qanchadan-qancha odamlar halok bo‘lgan, xonadonlar vayronaga aylangan. Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, Andijonda shaxsan Skobelev boshchiligida 20 ming kishi o‘ldirilgan.

Shu tariqa, Trotskiy va Skobelev yaxshi qurollangan qo‘shin bilan xalq lashkarlarini birin-ketin qiraverdi. General Trotskiy qo‘mondonligida harakat qilgan qo‘shin janglar da 12 kishi yo‘qotgan, yaradorlar soni 59 kishini tashkil etgan.

Bosqinchilar ikki yarim oy ichida to‘plardan himoyachilarga qarshi 387 snaryad otganlar. Shu vaqt ichida 150 miltiq, 144 to‘p, 32260 to‘p o‘qi, 1092 granata o‘lja olganlar. Bu himoyachilar uchun juda katta talofat edi.

Bu fojealar yuz berayotganda Qo‘qon shahrining o‘zida ham Nasriddinxonga qarshi kuchlar bosh ko‘targan edi. Xalq nafрати va qarshilikka uchrayotgan Nasriddinxonning taqdiri xavf ostida qoladi. Shu bois u 9 oktyabrda uch soatlik jangdan so‘ng shoshilinch ravishda Xo‘jandga qochadi. Aftidan, xonga qarshi kurashga O‘ratepaning sobiq begi Abdulg‘afforbek

boshchilik qilgan, u taxtni qo‘lga oladi. Shundan keyin ham Qo‘qonda tartibsizlik va zo‘ravonlik hukm suraverdi.

Ruhoniylar ozodlik harakatining g‘oyaviy kuchi hisoblanib, xalq ommasini kurashga otlantirishda muhim o‘rin tutganlar. “Qo‘qon shayxulislomi bilan qozikalon, — deydi Ahmad Zaki Validiy, — ruslarga qarshi xalqni urushga da‘vat va targ‘ib etdilar. Natijada ularni qamoqqa oldilar. Kaufman shundan so‘ng shayxulislom ham, qozikalon ham degan narsalar bo‘lmasin, deb farmon berdi”.

Kaufmanning ruhoniylarga qarshi bunday farmoni hech bir samara bermay, xalq ular ta‘sirida vatan mustaqilligi yo‘lida jonini fido qildilar. Ruhoniylar Xudoyorxon taxtni va umuman mamlakatni o‘z holiga tashlab qochayotganida ham oldingi saflarda turib xalqni qo‘zg‘alishga da‘vat etib turgan edilar. “Shahar ko‘chalarida, loydan yasalgan devorlar orasida yurib, xalq suv toshqinidagi seldek to‘lqinlanib, nima qilishini bilmay hayron edi. Mullalar bozorlarda ham shahar u tomonidan bu tomoniga chopib, ‘Bitdik, xonimiz o‘ris tomonga o‘tdi, elimizga rusni kirgizdi’, deb odamlarni to‘plab, nutqlar qilib, xalqni xonga qarshi qo‘zg‘atdilar”.

Hatto qo‘zg‘olonchilar Xudoyorxon qochayotganda uni bir chaqirimgacha quvib borganlar, lekin qattiq qarshilikka uchrab, orqaga qaytganlar.

1875-yil noyabr oxirida Po‘latxon Asakadan chiqib, Marg‘ilonga o‘rnashadi. Biroq bu yerda ko‘p kishini o‘ldirgani sababli mavqei ancha pasayib ketadi. Aftidan, u ko‘proq xonlik maqomining qalbakiligidan norozi bo‘lgan guruhlarni shafqatsizlarcha jazolagan. Po‘latxon o‘zi tomonidan Andijon hokimligiga tayinlangan va keyin uning soxta xonligini fosh etgan Shomirza dodxoh, Yodgor dodxoh singari safdoshlarini ham o‘ldirtirgan. Po‘latxon Qo‘qon xonligining sharqiy qismida hukmronlik qilib, bosqinchilar bilan bo‘ladigan urushga tayyorgarlik ko‘rib bordi. O‘z navbatida, Namangandagi harbiy qism qo‘mondoni va o‘zining vatan himoyachilari ustidan qo‘lga kiritgan g‘alabalari uchun general unvonini olgan Skobelev bo‘lajak jangga hozirlikni jadallashtirdi.

Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon ta‘sirida Panjikentda ham ozodlik kurashi maydonga kelgan. Ularga qarshi general Afimovich qo‘mondonligida kapitan Arendarenko va mayor Abgrali qo‘l ostida ikki harbiy qism yuborilgan. Har ikki tomon o‘rtasidagi qonli to‘qnashuvda ruslardan 4 kishi o‘ldirilib, 25 odam yarador qilindi. Yaradorlar orasida 3 ofitser, o‘ldirilganlarning ichida esa 1 ofitser bo‘lgan. Bu talofatlar qattiq jang bo‘lganligidan dalolat beradi. Bosqinchilar vatan himoyachilarining harakatlarini shafqatsizlarcha bostirganlar.

1875-yil 25-dekabrda general Skobelev Namanganda 4 rota, 40 kazak va 10 to‘p, Chustda 2 rota, 20 kazak, 6 to‘p, Oqjarda 2 rota, 100 kazak va 2 to‘p qoldirib, 2800 kishi va 12 to‘pdan iborat qo‘shin bilan Andijonga yo‘l oladi. “Shundan keyin Skobelev, — deyiladi rus

manbasida, — Norin daryosi orqali Qoradaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab qipchoqlarning eng katta qishlog‘i Poytuqqacha bordi. U keta turib, yo‘lning ikki tomonidagi O‘zgan shahrini va daryoning chap qirg‘og‘iga qochib ketgan aholining qishloqlarini yoqib, yo‘q qilib tashladi. Shundan keyin general Skobelev Qoradaryoni kechib o‘tib, 1876-yil 3-yanvarda o‘zining barcha harbiy qismlarini Andijondan 5 chaqirim masofadagi Mirravot degan joyga o‘rnatdi<sup>55</sup>. Bu vaqtda Andijonda Abdurahmon oftobachi 20 ming qurollangan xalq lashkari, 5000 sarboz va 10 ming otliqni to‘plagan edi.”

Rus qo‘shini Po‘latxonning izi bilan yurib, 1876-yilning 28-yanvarida Uchqo‘rg‘onni qurshab oldi. So‘ngra ular to‘satdan hujum qilib, u yerga bostirib kirdilar. “Devoridan birinchi bo‘lib, - deyiladi rus manbasida, — kapitan Kuropatkin kirdi. O‘rdada Po‘latxonni qutqarish uchun jonini tikkanlar bilan qo‘l jangi bo‘ldi. Bu vaqtda 300 soldat 4 to‘p bilan yetib kelib, darhol jangga tashlandi. Po‘latxonning kuchlari sochilib ketdi. Bu jangda 5 ming to‘p, ko‘p qurol-aslaha va Po‘latxonning mol-mulki, xazinasi o‘lja olindi”. Po‘latxon esa Oloy vodiysiga qochib, Darautqo‘rg‘on degan joyga o‘rnashdi, ammo bu yerga Qorategin hokimi hujum qilib, Po‘latxonning oxirgi kuchlarini tor-mor etdi. Shundan keyin Po‘latxon bir guruh ishonchli kishilari bilan Chavay degan joyga qochdi. Bu yerda u qo‘lga olinib, rus hukumati vakillariga topshirildi. Bu ishni amalga oshirishda uning ashaddiy dushmanlaridan biri Mirzaqul jonbozlik ko‘rsatdi.

Po‘latxon qo‘zg‘olonining bostirilishi poytaxt Peterburgda, xususan imperator tomonidan mamnuniyat bilan qarshi olinib, uning qatnashchilari mukofotlandilar.

1873-1876-yillari Qo‘qon xonligidagi o‘ta dahshatli urushlar, ko‘pdan-ko‘p odamlarning qarshiligi, shahar va qishloqlarning vayron qilinishidan so‘ng xalq ommasining tinkasi quridi va qashshoqlashdi. Hayotning barcha tarmoqlari izdan chiqib, misli ko‘rilmagan azob-uqubatlarga hukm surib, qayg‘u-alam, ko‘z yoshlar hamda qonlar bamisoli daryo kabi oqdi. Mana shunday og‘ir sharoitda ham xalq Vatan mustaqilligi uchun kurashdan voz kechmadi. Ammo ularning o‘z holiga tashlab qo‘yilishi, o‘zaro nizo va kurashlar hamda harbiy texnika va harbiy bilimning pastligi mag‘lubiyatga olib keldi. Bir guruh mahalliy amaldor tabaqa vakillari esa boshqa ilojini topolmay, Rossiya hukmronligini tan olishga majbur bo‘ldilar. Ular xalq nomidan qalbaki yozma murojaatlarni uyushtirishib, Rossiya hukmronligiga roziliklarini namoyish etdilar. Hatto ayrim joylarda “tantanali” uchrashuvlar uyushtirdilar. Qo‘qon xonligida boshlangan Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon keyingi bosqichda milliy-ozodlik harakatiga aylanib ketgan. Xudoyorxon esa o‘z ixtiyorini general-gubemator Kaufmanga topshirgan. 1875-yil sentabrda Kaufman qo‘shini Maxramdan chiqib, Qo‘qon shahriga yo‘l olgan. Asta-sekinlik bilan Andijon, Namangan shaharlari egallanib, 1876-yil

<sup>55</sup> Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) — T: Sharq, 2000.

18-fevralda Qo‘qon xonligi tugatilganligi e‘lon qilingan. Xonlik hududlari Farg‘ona viloyati sifatida Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga kiritilgan. Turkiston general-gubernatorligi boshqaruvi 1865-yil 6-avgustda imperator Aleksandr II tomonidan tasdiqlangan “Turkiston viloyatini idora qilish to‘g‘risidagi nizom”i asosida boshqarilgan. Nizom bir necha marotaba qayta-qayta ishlanib, o‘zgartirishlar kiritilgan. 1886-yil “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi nizom”i loyihasi e‘lon qilingan. Unga ko‘ra, o‘lka markaziy, oblast, uezd, uchastka, qishloq va shahar shaklida boshqarilgan. Markaziy o‘lka boshqaruvi general-gubernator, kengash va mahkamadan iborat bo‘lgan. Ma‘muriy jihatdan o‘lka Farg‘ona, Samarqand, Sirdaryo, Yettisuv va Kaspiyorti viloyatlariga bo‘lingan.

**Xulosa.** Umuman olganda, 1873–1876 yillarda Qo‘qon xonligida yuz bergan voqealar xalqning og‘ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, Xudoyorxonning zulmi hamda Rossiya bosqinining kuchayishi natijasida keng ko‘lamli xalq harakatiga aylanib ketdi. Po‘latxon boshchiligidagi qo‘zg‘olon va unga o‘xshash qarshilik harakatlari xalqning mustaqillik va adolatga bo‘lgan intilishini ifoda etdi, biroq ichki nizolar, yetarli harbiy tayyorgarlikning yo‘qligi hamda bosqinchilarning kuchli harbiy qudrati sababli bu kurashlar mag‘lubiyat bilan yakunlandi. Natijada xonlik zaiflashib, Rossiya hukmronligi ostiga tushdi.

Shu bilan birga, bu voqealar xalq ongida ozodlik va vatanparvarlik g‘oyalarining mustahkamlanishiga sabab bo‘ldi. Qattiq talafotlar, vayronagarchiliklar va qashshoqlik kuchaygan bo‘lsa-da, xalqning mustaqillik uchun kurash ruhi butunlay so‘nmadi. Tarixiy jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, tashqi bosqin va ichki bo‘linishlar davlatning qulashiga olib kelgan bo‘lsa-da, bu kurashlar keyingi davrlar uchun muhim saboq va tajriba bo‘lib xizmat qilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kuzikulov I. U. Qo‘qon xonligi tarixi (o‘quv-uslubiy qo‘llanma). – Namangan: Namangan, 2014. – 84 b.
2. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash: (XVIII–XX asr boshlari). – Toshkent: Sharq, 1998. – 480 b.
3. Sodiqov H, Shamsutdinov R, Ravshanov P, Usmonov Q. Turkiston Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. – Toshkent: Sharq, 2000. – 466 b.
4. Azamat Ziyoyev. O‘zbek davlatchiligi tarixi: (Eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar) – Toshkent:, 2000. — 368 b.
5. Abdullayev U.S. Farg‘ona vodiysida etnoslararo jarayonlar. (XIX–XX asr boshlari). – Toshkent, 2005 – 215 b.
6. Bobobekov X. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996 – 240 b.

7. Usmonov Q. O‘zbekiston tarixi: Oliy o‘quv yurtlari barcha bakalavr yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2006. – 520 b.
8. Ibrat. Farg‘ona tarixi. – Toshkent: Meros, 1991.